



Usmon Azim sotsioantropologiyasida ayolning ijtimoiy hayotdagi o'rne

QarDU tadqiqotchisi

D. Ro'ziyeva

Usmon Azimning she'rlari orasida ayollar mavzusi hamda ularning ijtimoiy hayotdagi o'rne, yashash tarzi masalasi ko'tarilgan. Shoirning "yurak", "fonus" va xalqning tillarida doston bo'lishga ulgurgan "Baxshiyona" turkumidan joy olgan she'rlarida keltirilgan ayollar obrazi haqiqiy o'zbek millatiga xos sharqona urf-odatlar va aqidalardan yiroq bo'lmagan oqila ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rne, masalasi haqida bayon qilingan.

Usmon Azimning she'rlarida o'zbek ayollari takrorlanmas tasvirlarda o'z aksini topadi. Shoir ayollarning naqadar nozik ojiza sifatida emas, mehr-u, muhabbati qaynoq, or-nomus va jasorat sohibasi sifatida gavdalantiradi. Hech ko'rganmisiz o'tov buzayotgan "ol ko'ylakli ayollar" ni .

Bu –qo'ng'irotning qiz-juvonlari. Qadim-qadimdan qizil ko'ylak kiyib kelgan qo'ng'irotni ayollarigina ko'chish lozim bo'lganda o'tov – qora uyni buzishga haqqi bo'lgan. Tog' va dash yerlarida o'choq – tandirga yaqinlashmagani kabi uy buzishga ham zinhor-bazinhor qo'l urmagan. Chunki o'choq – tandir, uy – vatan ona nomiga uyqash qilib aytilgani uchun ham bu ish - ayolga tan !

Usmon Azim she'rlarida o'zbek ayoli alohida bir muhabbat, mehr va ardoq bilan tasvirlanadi. Bu she'rlarda ayol oilasining or-nomusi, g'ururi uchun kurashadigan jasorat sohibasi sifatida gavdalanadi.

Bir misol keltirsak. Shoirning ko'pkarida oti o'lib dunyosi qorong'u bo'lib qaytgan chavondozi haqida she'ri bor. U shunday boshlanadi:

Chavondozi uloqdan qaytdi piyoda,



Ranglaringiz bir ol, ayting, ne bo'ldi?

Onasi dardimni qilma ziyoda,

Onasi, otginam... otginam o'ldi.

Chorvador xalq uchun ot yigitning yo'ldoshi, tiriklik belgisi, hayot mazmuni. Ko'pkari esa mardlar o'yini bo'lib, chapani, chapdast, baquvat va g'ujurli erning nomini ellarga yoyadi. Uloqchi oti tufayli dovrug' qozon gan shunqorlar son mingta. Ot uchun butun borlig'ni berishga tayyor yovqur yigitlar bugun ham bor. Ana shunday chapdas, chavondozi otidan ayrildi, endi elda qanday yuradi? Uning bel madori, suyanadigan tirgagi, yuradigan "oyog'I" ketdi. Bu juda katta musibat, tashvish. G'amga botgan chavondozi ko'zdan oqayotgan yoshini hatto xotinidan yoshiradi.

Chavondozi xo'rsinar... Tong otar edi,

Eng so'nggi yulduzlar borardi botib.

Xotini shivirlar: hech xafa bo'lmang,

Sizga ot olamiz uy- joyni sotib...

She'r op-nomus uchun mol-dunyodan voz kechishga tayyor To'marisu, Barchinoylarga bag'ishlov. Bunday ayoli bor elning ertasi yorug'dur.

Usmon Azimning "Lo'li qiz qo'shig'i" ga bir e'tiborimizni qarataylik:

Men yo'llarda tug'ilganman,

Ayrimasdan yo'llardan.

Umrin o'tar yo'llar bilan,

Kezib-kezib o'larman



Lo'li qizning bu istiroblari bu - muhabbat istiroblari. Unda insoniy sevgidan baland tuyg'ular borligi tarannum etilgan.

She'ning lirik qahramoni millatdoshlari hayoti, qadriyati va turmush-tarzini o'z muhabbatidan ustun qo'yadi. Lo'li qiz ajdodlaridan meros hayot turmushiga, urf-odatlariga xiyonat qilishni istamaydi.

Shuning uchun ham:

Har narsani yengadurman,

Muhabbat odiy g'amku!

U o'tkinchi o'tib ketar...

Faqat shu yo'llar mangu – deydi .

Bu yerda yo'l – ajdodlar xotirasi. Qiz ana shu xotirani oyoqosti bo'lishiga rozi emas.

She'rni o'qib lirik qahramonga nisbatan mehringiz tovlanadi.

“Yomg'ir. Bekat” she'riga e'tibor qaratadigan bo'lsak unda ayolning o'zga cha bir holatda, sukunatdagi o'z izxorini ifoda etayotganini kuzatamiz. Ushbu she'rda endi lirik qahramonlar zabonsiz, tilsiz sukunatda sevadilar. Jimjit so'zlashadilar.

Yomg'ir.

Bekat.

Erkakning egnida yomg'irpo'sh

Ayolning ko'ylagi badaniga yopishgan.

(Oltmishinchi avtobus to'xtab o'tadi)

“Sovuq qotdi, - o'ylaydi erkak, -

Yomg'irpo'shni yelkasiga tashlasam

Xafa bo'lmasmikin?”



(Oltmishinchi avtobus to‘xtab o‘tadi)

“Chiroyli ekan, - o‘ylaydi erkak, -

Yoshi ham o‘ttizdan oshmagan.

Qani edi, shunday xotining xotanim bo‘lsa...”

(Oltmishinchi avtobus to‘xtab o‘tadi).

“Balki u taqdirimdir, - o‘ylaydi erkak, -

Ammo yomg‘irpo‘shni yelkasiga tashlasam

Otib yubormasmikan ?

Baribir ayol - da .

Chiroyli bo‘lsa ham...”

(Oltmishinchi avtobus olib ketadi ayolni).

Uf tortadi erkak.

(Uyida ivigan kiyimlarini

Yana o‘zi

xo‘rsinib yechadi ayol) .

Usmon Azimning sevimli obrazi yomg‘ir deb aytgan edik, yuqoridagi she’r buning ayni isbotidir. Yomg‘ir obrazi she’rda mahzunlik, hazinlikka to‘la bir holatda ifoda etiladi. O‘zi yomg‘ir ko‘z oldimizga kelishi bilan ruhiyatimizda qandaydir sokinlik gavdalanadi. Bekatda avtobus(Oltmishinchi avtobus) kutayotgan ayol avtobusga chiqmay o‘tkazib yuboradi. U avtobusni emas, balki baxtini kutayotganini esa biz she’r oxirida sezib qolamiz. Ushbu she’r voqeaband she’r hisoblanib, undagi avtobus, yomg‘ir, bekat, yomg‘irpo‘sh obrazlari lirik qahramon ruhiyati, kechinmalarini yorqin ochib beradi. Bekatdagi erkak va ayolning muhabbatga, mehrga tashna qalblari juda mohirlik bilan tasvirlangan. Erkak ayolni uchratar ekan unga bir og‘iz so‘z aytish tugul yomg‘irpo‘shini berishga iymanadi. Bunga botinolmaydi, ayol esa oltmishinchi avtobusga chiqmay o‘tkazib yuboradi. U ham erkakning yoniga kelib elkasiga yomg‘irpo‘shini tashlashini xohlaydi.



She'rdagi ayol va erkak obrazlarining yoshi uncha kichik bo'lmaganligini biz "yoshi ham o'ttizdan oshmagan" degan misradan bilib olamiz. Erkakning o'zida jur'at topolmasligiga sabab "Yomg'irpo'shni otib yubormasmikin?" degan andishaga boradi. Kitobxon mutolaaga kirishar ekan, oxirida ayolning ham yolg'iz ekanidan, uning ivigan ko'ylaklari ustidan yelkasiga yomg'irpo'sh tashlaydigan insoni yo'qligidan ko'ngli iztirobga tushadi.

Ayol bilan birga qiynaladi, xo'rsinadi. Oltmishinchi avtobus ayolni olib ketgach, ayolning ketmasligini xohlagan erkak og'ir "Uf" tortadi. Bu dard to'la "Uf" ning tagida horg'inlik, hasrat, afsus yashirin edi. Har ikkala obrazning bu kayfiyati, yolg'izligi ularni ezib qo'ygan edi.

U. Azimning bu she'rida kuchli iztirob, hissiyotlar silsilasi sezilib turadi. Inson shunday tabiatga egaki, u o'zini ba'zan nima uchundir qo'yarga joy topolmaydi. Bu bezovtalik ba'zan shodlikdan, ba'zida esa g'am - u iztirobdan yuzaga keladi. Zero, shoir aytganidek, ba'zan daryo kabi to'lib toshadi, ba'zan tuproqday xokisor kimsaga aylanadi. Ba'zan olovday yonsa, ba'zan kul bosgan cho'g'day so'nadi. Lirik kechinmalar hissiyotlar po'rtanasida yuzaga kelgan shoir ruhining muayyan bir vaqtdagi harakati, obrazli tasvir orqali reallashganini aynan shu she'r misolida ham kuzatish mumkin. U. Azim ruhoniyyat kuychisi. Shoir she'rlarini kitobxonga shunchaki emas, balki muhabbatga, hayratga, g'ussaga o'rab beradi. Ijodkorning she'rlaridagi lirik qahramonning kayfiyati ruhni cho'ktirmaydi, dardga yo'g'rilgan bo'lsa - da, hatto har bitta misrada iztirobning zalvori sezilsa - da o'quvchi o'sha dardning totini teran anglaydi.

Usmon Azimning "Onamga maktub" she'riga nazar soladigan bo'lsak uning do'st-u, yorlari orasida naqadar yolg'iz ekanini sezish mumkin.

Erta – indin yelar izg'irin,

Yiqiladi bog'larga tuman.



Anglagani yashashning sirin,
So'zlashaman yomg'irlar bilan.
Mast-u alast, beg'am do'st-u, yor
Toliqtirar qalbimni manim.
Shunda birdan bo'ladi oshkor,
Yolg'izlardan yolg'iz ekanim.
Derazaga ho'l bag'rin bosib,
Kuzak tuni surganda xayol.
Men eng go'zal she'rimni yozib,
Sizni eslab yig'lashim ayon. ¹

O'zbek she'riyatida ona mavzusida ko'plab she'rlar bitilgan. Ularning har birida alohida o'zgacha bir tasvir bo'lsada, ammo har bir she'rda ona mehri, onaning sog'inchi diqqat markazda turadi. Usmon Azimning ushbu misralariga nazar tashlasak, uning bu olamda do'st-u, yorlari ko'p bo'lsada, ammo u yolg'iz. Uning qalbiga ozor yetdi, uning qalbi hasta, uning mast-alast do'st-u, yorlaridan qalbi toliqdi. Shunda shoir ichki bir tug'yon bilan qalbidagi sog'inchni oshkor ayladi. U xayolan yomg'irlar bilan so'zlashar shunda ichidagi sog'inch, mehr hissi isyon ko'tardi-yu birdan o'zi tan olmagan haqiqatni: yolg'izlardanda yolg'iz ekanin oshkor etdi va eng go'zal she'rni bitib, so'ng onasini eslaganda yig'laganini ayon qilib, she'rda ona mehri ona sog'inchi bola uchun qay yoshga kirmasin uning hamma narsadan ustun ekanini ifoda etgan.



Usmon Azimning kiyingi she'rida ham ayol obrazi keltirilgan. Unda ayolning benihoya go'zal, nihoyatda mehribon, tinim bilmas mehnatsevar sofdil ayol obrazi sifatida tasvirlangan.

Bu ayol chiroyli,

Dono mehribon.

Sog'-u omonligim,

So'raydi har on.

Tun-u kun xat yo'llar,

Mehri – sahovat.

She'rlar tinglashga ham,

Topadi toqat.

Ishni bitirar –u,

Yugurar ishga.

Bu ayol hayotda,

Ko'ngilda, tushda...

Lirik gahramon sifatida tasvir obyektiga aylangan ayol obrazi mehnatsevar, dono, oqila ayol. U suygan yorining sog'ligi-yu, uning so'ylaydigan so'zlariga qadar boxabar bo'lishga urinishlari, hattoki, shuncha yumushlardan so'ng she'rlar tinglashga ham o'zida toqat, mustahkam iroda topolgani haqiqiy jonkuyar o'zbek ayolining yorqin tasviri aks ettirilgan.

Shoir kiyingi misrasida esa bunday ayolning hayotda, ko'ngilda, hattoki, tushlarida ham borligiga ishora qiladi.



Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumida ham baxshilar tomonidan ayollarning o’z zamonida ham turlicha ta’riflari, xususiyatlari, o’z zamonining ko’zga ko’ringan ayollari-yu, qiz-juvonlarning ijtimoiy hayotdagi o’rni, masalasi haqida ko’plab misollar keltirilgan. Masalan, Elbek baxshi Shomurod baxshidan eshitganlarini bizga ko’p aytardi deb,²shoir Usmon Azim o’z she’rlarida namunalar keltiradi:

Sochlaring sozima tormidi,

Qomating qatlima dormidi;

Bir ham qayrilib boqmayсан,

Menga bu azob ham bormidi?

Kechasi uxlashga bormagan,

Osmonda oymidi – porlagan.

Ko’nglingning yo’lidan qolmagin,

O’zimman ko’nglini chorlagan.

Boshimdan davroning yeladi,

“Yor” desam – shamoling keladi.

Tog’lardan balandroq boshimni,

Sog’inching qorlarga beladi.

Bu dunyo turguncha “yor”, desam,

“Sen bilan bu dunyo bor” , desam.



“Bir boqsang – bir umr behishtdir,

“ Boqmasang – boshimda dor””, desam.

She’rda shomurod baxshining sog’inchi, mehr-u, muhabbati faqat go’zal yori mingsuluvga atalgan bo’lib, uning bu sog’inchi, mehri turli o’xshatishlar: osmondagi yorqin porloq oyga, shamolga, qorga hattoki, yorning birgina boqishini bir umrlik behishtga (jannatga) tengdir deya go’zal ta’riflar bilan qo’shiqni yakunlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tanlangan asarlar 1-jilt Usmon Azim Toshkent: G’G’ulom nashriyoti batbaa ijodiy uyi 2016
2. Tanlangan asarlar 2-jilt Usmon Azim Toshkent: G’G’ulom nashriyoti batbaa ijodiy uyi 2016
3. Usmon Azim Saylanma “Sharq” nashriyoti Toshkent 1995
4. Usmon Azim Baxshiyona balladalar “Yosh gvardiyachilar” Toshkent 1990